

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHODYIEV KAMOLIDIN SHAMSIDDIN O‘G‘LI**

**INNOVATSION IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI BARQAROR  
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Shodiyev Kamolidin Shamsiddin o'g'li**

Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish .....3

**Шодиев Камолидин Шамсиддин угли**

Совершенствование механизмов устойчивого развития туристической отрасли в условиях инновационной экономики .....29

**Shodiev Kamolidin Shamsiddin o'g'li**

Improving the mechanisms of sustainable development of tourism in the innovative economy.....57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHODYIEV KAMOLIDIN SHAMSIDDIN O‘G‘LI**

**INNOVATSION IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI BARQAROR  
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1862 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) universitet veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:** **Turaev Baxodir Xatamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ruziev Sobirjon Samatovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "3" "12" soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-72; faks: (+99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz).)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1537 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-72; faks: (+99871) 239-43-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "18" "11" kuni tarqatildi.  
(2024 yil "18" "11" dagi 76 raqamli reestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir-martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**A.A. Eshtaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global integratsiya va raqobatning kuchayib borishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi, jumladan turizm va mehmonxona sanoatining barqaror rivojlanishi taraqqiyot ustuvor yo'nalishlarining o'zgarishini taqozo etib, xalqaro aloqalarni kengaytirish va qo'llab-quvvatlash asosida turizm biznesining yanada globallasuvi va sayohatni amalga oshirish jarayonlarini faollashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Keyingi paytlarda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini izchil amalga oshirishda, eng muhimi, aholining ehtiyojini qondirish jarayonida faol ishtirok etayotgan turizm sub'ektlari faoliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Butunjahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "2022 yilda dunyo bo'yicha 900 mln. sayyohatchilarga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, bu 2021 yilga qaraganda ikki barobardan ko'p"<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, hozirgi paytda turizm va sayyohlik sanoati butun dunyoga tarqalib, global miqyosda uning ahamiyati yanada oshishi sodir bo'lmoqda.

Jahonda turizm tashqi bozorga yo'naltirilgan eng yirik tarmoq sifatida namoyon bo'lib, global iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga qo'shayotgan katta hissasi tufayli innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish jarayonlarining uslubiy asoslarini chuqurlashtirish, sohani barqaror rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, turizm sohasi rivojlanishiga shart-sharoitlar va turistik infratuzilmalar ta'sirini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, malakali xodimlar salohiyatidan foydalanish yo'nalishlarini aniqlash, turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlashda marketing tadqiqotlarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqolarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishiga turizm sohasini rivojlantirishning garovi sifatida qaralmoqda. Respublika turizm sohasining keyingi yillardagi rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uning boy tabiiy, madaniy va milliy salohiyatidan to'la foydalangan holda innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "...zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"<sup>2</sup>, deb bildirgan fikrlari mazkur muammoning dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekiston xalqaro turizm biznesida turizmning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash

<sup>1</sup>Бутунжаҳон туризм ташкилоти (UNWTO) расмий веб-сайти маълумотлари асосида.

<https://tourism.interfax.ru/ru/news/articles/94758/>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. –Б. 23.

va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilishini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasining «2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi»da belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 iyuldagi “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida “Turizm qo‘mitasi”ni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi o‘rni bilan bog‘liq nazariy va metodologik masalalar xorijlik iqtisodchi olimlar: Dj.Uoker, F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykens, Dj.A.Michelli, A.Braymer, V.A.Kvartalnov, A.D. Chudnovskiy, V.I.Azar, V.S. Bogolyubov, V.Kvartalnov, M.A.Jukova, N.Kabushkin, G.Papiryan, B.A.Romanov, V.B.Saprunova, L.F.Xodorkov, Yu.F.Volkov, N.M.Kuldoshina, D.S.Ushakov, L.V Xoreva, G.A Karpova, I.T Balabanov, A.I. Balabanov A.L.Lesnik, I.P.Masiskiy, V.G.Fedsov, A.V.Chernishev, V.Senin, A.B.Kosolapov, M.V.Yakimenko, L.P.Shmatko, L.V.Jolobova, G.I.Lyashkolar<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan o‘rganilib, ular asosan zamonaviy turizm sohasi nazariyasining asosiy negizlarini yaratishib, bozor tadqiqi muammolarini ilmiy tahlil etishi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator omillar tufayli turistik sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish muammolariga va mehmondo‘stlik

---

<sup>3</sup>Уокер Дж. Введение в гостеприимство. Учеб. Пособие / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1999.; Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенс Дж. Маркетинг. Гостеприимство и туризм. / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1998.; Браймер А. Основы управления предприятиями и организациями индустрии гостеприимство. – М.: 1994.; Квартальнов, В.А. Стратегический менеджмент в туризме: современный опыт управления. - М.: Финансы и статистика, 1999.; Карпова Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью. Учебное пособие. -СПбГУЭФ, 2011. - 268 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. - 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2006. - 193 с.;Ходорков Л.Ф. Мировое гостиничное хозяйство. – М.: 1991.; Сенин В.С. Организация международного туризма: учебник. - 2-е изд.- М.: Финансы и статистика, 2005.- 400 с.; Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристический бизнес. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – 637 с Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие. - М: Финансы и статистика, 2003.;Туризм и гостиничное хозяйство / Под ред. А.Д. Чудновского. – М.: Эксмо, 2000.; Кулдошина Н.М. Экономика и финансы гостиничного бизнеса. – М.: МАТГР, 2000., Организация и управление гостиничным бизнесом. / Под ред. А.Л.Лесника, И.П.Мащицкого, А.В.Чернишева – М.: 2000.; Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. – М.: 2005., Кварталнов В.А. Теория и практика туризма. – М.: Советский спорт, 2004., Мичелли Дж.А. Rits-Carlton: золотой стандарт гостиничного бизнеса нового тысячелетия / ДжозефМичелли: пер. с англ. В.С.Иващенко. – М.: Эксмо, 2009. – 320 с., Сапрунова В.Б. Туризм: эволюция, структура, маркетинг. М., 1997.; Туризм и гостиничное хозяйство / Под ред. Л.П. Шматко. – Ростов н/Д: Феникс; Издательский центр «МарТ», 2010. – 352 с., Федцов В.Г. Культура гостинично-туристского сервиса. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. 503 с.,Азар В.И. Экономика и организация туризма – М.: Экономика, 2003.- 322с.; Боголюбов В.С. Экономика туризма. Учеб.пособие для студ.высш. учеб.заведений-М. »Академия»,2005. – 192с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма - Минск.: Новое знание, 2002. - 409 с.; Папирян Г.А. Международные экономические отношения: Маркетинг в туризме. М.: Финансы и статистика, 2001.-160 с.;Романов А.А. Международный туризм: политика развития: Учебное пособие. М., 1998.

industriyasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e'tibor berishgan. Turizm marketingi va menejmentini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Turizmning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan B.X.To'raev, A.A.Eshtaev, M.T.Alimova, A.F.Saidov, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, A.Norchaev, M.T. Alieva, T.Abdullaeva, N.T.Tuxliev, N.M Abdusalomova, B.Mirbabaev, O.Kim, S.Ro'ziev, N.Raximova, O.M.Pardaev, va boshqalarning ilmiy ishlarida<sup>6</sup>. Ushbu olimlar asarlarida O'zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish, turistik xizmatlar sifatini oshirish va ularni takomillashtirish muammolarining nazariy va amaliy masalalariga keng e'tibor qaratilgan.

Ammo innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, uning hududlar bo'yicha mutanosibliгинi ta'minlash, sohaning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, turizm sohasini rivojlantirish strategik yo'nalishlarini aniqlash, jahon turistik xizmatlari bozoriga milliy turmahsulotlarni moslashtirish, turizm tarmog'iga innovatsiyalarni joriy etish, mamlakatda turizmni zamonaviy talablarga mos holda turistik xizmatlarning sifatini jahon standartlari darajasiga yetkazish kabi masalalar yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu holat mazkur sohada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Yuqorida qayd etilgan masalalarni hal qilish zarurati mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsiyani joriy qilish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish jarayonlarining

---

<sup>6</sup>Turaev B.X. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма.- Док.дисс., 2011.; Эштаев А.А. Глобализация шароитида туризм индустриясини ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида)-док.диссер. 2011.; Алимova М.Т. Худудий туризм бозорининг хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) – докторлик диссертацияси, 2017. Хамидов О. Х. Выбор конкурентной стратегии предприятий на рынке туристических услуг Узбекистана. Докт. дисс., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана.- Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.-2006. - 367 с.; Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини қўллаш.– Номзод.дисс., 2008.; Ким О.К. Маркетинг туристических гостиничных услуг. – Канд. дисс., 1999.; Норчаев А.Н. Халқаро туризм ривожланишининг иқтисодий ўсишига таъсири. – докт. дисс., 2004.; Мирбабаев Б.Ю. Ўзбекистон туризмида маркетинг ва унинг глобализация шароитида такомиллашуви. Номзод. дисс., 2008.; Пардаев М.Қ.,Рахимов Ҳ.А. Турфирмаларда молиявий натижалар таҳлили. – Т.: "Иқтисодиёт" нашриёти, 2012.-64 б.,Пардаев М.Қ., Холикулов А.Н., Рахимов Ҳ.А. Мехмонхона хўжалиқларида самарадорликни ошириш муаммолари. Монография. – Т.: "Иқтисодиёт", 2013. – 212 бет.Абдусаломова Н.М. Халқаро туризмда маркетинг жараёнининг ривожланиши. – Номзод. дисс., 2001.; Рузиев С.С. Ўзбекистон маданий туризм бозори ва унинг истиқболлари. – Номзод.дисс. 2009.; Рахимова Н.Р. Особенности формирования стратегии маркетинга на рынке туристических услуг. – Канд. дисс., 2010.; Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом республики Узбекистан. – Док.дисс., 1994. Тўхлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари Дарслик.- Т. Фан ва технология, 2014.- 332 б.; 2017.

ilmiy va amaliy jihatlarini o'rganish;

turizm sohasini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish;

turizm sohasini barqaror rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

turizm sohasi rivojlanishining hozirgi zamondagi holati va bu jarayondagi o'zgarishlarni tahlil qilish;

innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasi rivojlanishiga mavjud shart-sharoitlar va turistik infratuzilmalar darajasi ta'sirini ko'rsatib berish;

innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirishda malakali xodimlar salohiyatidan foydalanish holatini o'rganish;

innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirishni takomillashtirish va uning konsepsiyasini yoritish;

turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlashda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish va uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'ektini** O'zbekiston Respublikasi, xususan, Samarqand viloyatida turistik xizmatlar ko'rsatuvchi turistik firmalar va ularning infratuzilmalari bilan bog'liq sub'ektlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, sotsiologik so'rovlar o'tkazish va umumlashtirish, iqtisodiy-matematik usullar, omilli tahlil va boshqa tahliliy hamda statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "turizm sohasining barqaror rivojlanishi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishi, turizmdan olinadigan daromadni oshirish bilan birga, tabiiy va madaniy merosni himoya qilish, mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olish va turizmning ijobiy ijtimoiy ta'sirini ta'minlash asosida turistlar ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

turistik korxonalarini innovatsion salohiyat ko'rsatkichlari bo'yicha "yuqori darajadagi innovatsion salohiyat" ( $0,7 < IS_{yu} \leq 1$ ), "oshirilgan darajali innovatsion salohiyat" ( $0,5 < IS_o \leq 0,7$ ), "o'rta darajali innovatsion salohiyat" ( $0,3 < IS_o \leq 0,5$ ), "past darajadagi innovatsion salohiyat" ( $0 < IS_p \leq 0,3$ ) guruhlariga ko'ra tasniflash orqali turizm segmentlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash asoslangan;

turizm sohasining barqaror rivojlanganlik jihatidan Samarqand shahri (0,72), Kattaqo'rg'on tumani (0,68), Payariq tumani (0,61) va Samarqand tumani (0,65) salohiyatlarini aniqlash asosida turizm sohasini rivojlantirish ustuvorligiga ko'ra Samarqand viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi «o'sish nuqtalari» va «drayver sohalari»ni belgilash taklifi asoslangan;

Samarqand viloyatida kiruvchi va chiquvchi turizm bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida turistik sohasining 2026-yilga qadar rivojlanish prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

innovatsion rivojlanish sharoitida turizm sohasi barqarorligini ta'minlash, uni tizim sifatida ifodalovchi kategoriya sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari texnologiyalaridan foydalangan holda turizm sohasini rivojlantirishning yangi yo'nalishlari asoslab berilgan;

innovatsion iqtisodiy rivojlanish jarayonida turizm sohasini rivojlanishi va samaradorligini oshirish va uning strategik istiqbolini belgilash bo'yicha turizm xizmatlari sohasining insonga ijobiy ta'sirini kuchaytirish yo'nalishlarini kuchaytirish yo'llari ko'rsatib berilgan;

turizm industriyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turizm xizmatlari sifatini oshirish mexanizmini hisobga olgan holda Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

turizm sohasiga innovatsiyani joriy qilishda uni yaratuvchilar va undan foydalanuvchilar manfaati, har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari, ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar sifatini oshirish, korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi marketing tadqiqotlarini rivojlantirish asosida turizm korxonalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, sotsiologik so'rov natijasida to'planganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalardan turizm sohasini rivojlantirish, uning samarali faoliyat olib borishini ta'minlash, turizm sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar va sabablarni aniqlash, turizm sifatini oshirish strategiyasini amalga oshirish negizida sohaning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga doir amaliy tadbirlarni ishlab chiqishda, qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlarini yaratishda, turizm xizmatlari sohasining insonga ijobiy ta'sirini kuchaytirish yo'nalishlarini takomillashtirishda, turizm sohasiga oid o'quv adabiyotlarini yaratishda keng foydalanishi mumkinligida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "turizm sohasining barqaror rivojlanishi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishi, turizmdan olinadigan daromadni oshirish bilan birga, tabiiy va madaniy merosni himoya qilish, mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olish va turizmning ijobiy ijtimoiy ta'sirini ta'minlash asosida turistlar ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Mehmonxona xo'jaligida xizmatlar sifatini boshqarish" nomli o'quv qo'llanma tayyorlashda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 4-oktabrdagi 892-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda tabiiy va madaniy merosni himoya qilish, mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olish va turizmning ijobiy ijtimoiy ta’sirini ta’minlash asosida turistlar ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “turizm sohasining barqaror rivojlanishi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

turistik korxonalarni innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha “yuqori darajadagi innovatsion salohiyat” ( $0,7 < IS_{yu} \leq 1$ ), “oshirilgan darajali innovatsion salohiyat” ( $0,5 < IS_o \leq 0,7$ ), “o‘rta darajali innovatsion salohiyat” ( $0,3 < IS_o \leq 0,5$ ), “past darajadagi innovatsion salohiyat” ( $0 < IS_p \leq 0,3$ ) guruhlariga ko‘ra tasniflash orqali turizm segmentlarini barqaror rivojlanishini ta’minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 21-dekabrda 02-12-17-2183-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turistik korxonalarni innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tasniflash orqali turizm segmentlarini barqaror rivojlanishini ta’minlash imkoni yaratilgan;

turizm sohasining barqaror rivojlanganlik jihatidan Samarqand shahri (0,72), Kattaqo‘rg‘on tumani (0,68), Payariq tumani (0,61) va Samarqand tumani (0,65) salohiyatlarini aniqlash asosida turizm sohasini rivojlantirish ustuvorligiga ko‘ra Samarqand viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi «o‘shish nuqtalari» va «drayver sohalari» ni belgilash taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-aprelda 222-son qaroriga 3-ilova “Samarqand viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi «o‘shish nuqtalari», «drayver sohalari»”ni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 21-dekabrda 02-12-17-2183-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm sohasini Samarqand viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi «o‘shish nuqtalari» va «drayver sohalari» tarkibiga kiritish orqali barqaror rivojlantirish imkoni yaratilgan;

Samarqand viloyatida kiruvchi va chiquvchi turizm bozoriga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida turistik sohasining 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan rivojlanish prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 21-dekabrda 02-12-17-2183-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatida kiruvchi va chiquvchi turizm bozoriga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida turistik sohasining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy parametrlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ma'ruza ko'rinishida bayon yetilgan va aprobatsiyadan o'tkazilib ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shu jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi hamda nashr yetilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida bozor iqtisodiyotida turizm sohasini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, turizm sohasini barqaror rivojlanishida investitsion faollik va undan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlashda ayrim xorijiy mamlakatlarning xalqaro turizm biznesi tajribasidan foydalanish jarayonlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga yerishish bo'yicha milliy ustuvor yo'nalishlarga rioya qilgan holda ishlab chiqilgan dasturlar va milliy strategiyalarga qo'yilgan vazifalarga erishish uchun, mamlakatimiz zarur axborot bazasini takomillashtirishi va ularni rivojlantirish bo'yicha o'z rejalarini ishlab chiqishi lozim. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ – 4699-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabridagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi VM-841-sonli qarori muhim ahamiyatga ega bo'lib, barqaror rivojlanish hamda uning birinchi maqsadi barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish bo'yicha respublika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning o'sish sur'atlarining O'zgarishiga hissa qo'shadi va aholining o'sib borayotgan yehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat yaratadi.

Dissertantning fikricha, xalqimizning buyuk o'tmishi va yo'qotilgan qadriyatlarini qayta tiklashga shunday katta ahamiyat berilayotgan bir vaqtda diniy va ziyoratgoh joylarni qayta tiklash borasidagi muammolar va ularni yechish chora-tadbirlari katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, turizm sohasini barqaror

rivojlanishini ta'minlash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda innovatsion va indikativ boshqarish konsepsiyasiga asoslangan holda uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, turistik sohani rivojlantirish ilmiy – texnik taraqqiyot va uning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Turizm sohasini barqaror rivojlantirishdagi eng muhim mexanizmlardan biri, bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish hisoblanadi. Sohaning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlar bilan multiplikativ ta'siri ko'rsatishi mumkinligini ifodalaydi, hamda barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlariga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi paytda «turizmga ko'rsatilgan xizmatlar global yalpi ichki maxsulotning 10,3 % ni tashkil etib, 8,9 trln. AQSh dollariga yetgan, shuningdek sohada bevosita va bilvosita 330 mln. kishi band bo'lib, 10 ish o'rnidan bittasi turizmga tegishli». Shu bois ko'p mamlakatlarda turizm sohasini jadal sur'atlar bilan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda turizm sohasida pandemiya va inqiroz oqibatida yuzaga kelgan noxush holatni bartaraf etishda davlat tomonidan ustuvor vazifalar belgilangan. «Turizm hamda unga bevosita bog'liq bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, yuz minglab ish o'rinlari va malakali mutaxassislarni saqlab qolish, ularning daromadlarini ushlab turish, shuningdek, mamlakatda sanitariya-epideomologik vaziyat yaxshilanishiga qarab turizm sohasini jadal qayta tiklash» ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu muhim vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish, uning iqtisodiyotga turli vositalar yordamida ta'sir ko'rsatishning yangi usul va mexanizmlarini yaratish, multiplikativ samaraga ega bo'lgan turizmni, bir tomondan, davlatning tarmoqda tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlash, uni tartiblash tizimini takomillashtirish, boshqa tomondan, bozor sektori algoritmlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiya ishida, mahalliy va xalqaro turizm xizmatlar bozorida yaratilayotgan tovarlar va xizmatlarni tahlil etish hamda ularning turizm industriyasini rivojlantirishga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini chuqur ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasiga nisbatan barqarorlik, umuman olganda, ma'lum turistik yo'nalishlar chegaralarida uning rivojlanishining ekologik, ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy oqibatlarining ijobiy muvozanatiga erishishni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, atrof-muhitning go'zal tabiati, mahalliy aholi madaniyati va an'alarining o'ziga xosligi, madaniy-tarixiy merosning boyligi sayyohlar va sayohatchilar tomonidan ayniqsa mashhur. Shu sababli, bunday hududlar o'zlarining turizm imkoniyatlarini amalga oshirishda muvaffaqiyat qozonishni kutsalar, barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilishlari ayniqsa muhimligi dissertatsiyada ko'rsatib o'tilgan.

Barqaror turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari quyidagi muvofiqlik talablariga asoslanadi:

biologik resurslar va tabiiy xilma-xillikni saqlash, asosiy ekologik jarayonlarni saqlash bilan;

mahalliy aholining ijtimoiy-madaniy an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish bilan;

kelajakda foydalanish uchun resurslardan oqilona foydalanish va takror ishlab chiqarish bilan.

Turizmning barqaror rivojlanish konsepsiyasi turizm xizmatlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish asosida ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy barqarorlikka erishishni ta'minlovchi mexanizmdan iborat bo'lishi lozim (1-jadval).

1-jadval

**O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillar<sup>4</sup>**


O'lchamlar	Ijoiy	Salbiy
Tabiiy resurslar	Tog'lar, cho'llar, o'zlashtirilgan yerlar	Dengizning yo'qligi
Siyosiy vaziyat	Barqarorlik	Qo'shni davlatlar: Afg'onistonda barqarorlikning yo'qligi
Iqtisodiy vaziyat	Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar	
Ijtimoiy vaziyat	Aholisi mehmondo'st, samimiyatli	
Joylashish shart-sharoitlari	Jahon standartlari talablariga javob beradigan 5*,4*,3* mehmonxonalarni mavjudligi	Mehmonxona servisi past, xodimlar savsiyasi past
Restoranlar	Milliy taomlar va boshqa xalqlar taomlarini tayyorlash san'atini amadda ko'rsata olishi.	Ayrim hollarda xorij mahsulotlarini bo'lmasligi
Infratuzilmalar (transport, aloqa)	To'g'ridan-to'g'ri charter reyslari uchun imkoniyatlarni mavjudligi	Umuman servis yuqori darajada yemas
Tarixiy joylar	Samarqand, Buxora, Xiva, Buyuk ipak yo'li	Qayta ta'mirlanishi va qisman tiklanishi
Xalq amaliy san'ati va xunarmandchilik	Monumental-dekorativ san'at durdonalari	Suvenir magazinlari va do'konlarining kamligi
Atrof-muhit shart-sharoitlari	Ekologik toza dam olish maskanlarini borligi	«Orol dengizi» suvini kamayishi
Tabiiy-iqlim sharoiti	Turizm bilan yil davomida shug'ullanish mumkinligi	Quruq, issiq yoz

Turizmni rivojlantirishda investisiyalarni jalb etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish sharoitida o'ta muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki turizmni rivojlantirishda investisiyalarni jalb etish, unga bo'lgan e'tibor yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, bu sohada investisiya faoliyatini yo'lga qo'yilishi va bu jarayonda yuzaga keladigan tashkiliy iqtisodiy vaziyatni hisobga olib, turli vositalardan samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarish soha samaradorligini oshiradi. Shundan kelib chiqqan holda turizm sohasi uchun sarflanadigan investisiyalar, mablag'lar maqsadli ishlar uchun aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Buning uchun, eng avvalo, investisiya jarayonlarini tashkil qilish masalalari xo'jalik subektlari faoliyatida to'g'ri hal qilinishi lozim. Turizmni rivojlantirishda asosiy va aylanma kapitallardan unumli foydalanish, investisiyalarni jalb etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va shu orqali bu sohada samaradorlikka erishish mumkin deb hisoblashga asos yetarlidir.

Dissertatsiyada turizm sohasida investisiyalarni jalb etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ko'p qirrali bo'lib, hokimiyatning chet el investorlariga munosabati, qarorlar qabul qilishdagi tezkorlik darajasi, axborot erkinligi, mahsulotlar, kapital va ishchi kuchlarining joylashishi va harakatlanishi uchun shart-sharoitlar mavjudligi,

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

shuningdek, tadbirkorlarning etnik va ish yuritish sifatlari haqida fikr yuritiladi. Uning iqtisodiy mexanizmi iqtisodiy o‘shish, yalpi mahsulot, narx-navo, byudjet daromadlari, jon boshiga byudjetdan tashqari fond mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik, omonatlar miqdori, chet el valyutasida kredit olish imkoniyati, bank foizi darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, uzoq muddatli kreditlarning solishtirma qiymati, zararga ishlaydigan korxonalar ulushi va hokazolardan iborat. Bu borada turizm majmuasini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan investitsiyalardan foydalanishning tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlardan samarali tashkil etish yo‘llarini aniqlab berish muhim ahamiyatga (1-rasm).



**1-rasm. Turizmni barqaror rivojlantirishga yo‘naltiriladigan investitsiyalardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tizimi<sup>5</sup>**

Xalqaro turizm dunyo mamlakatlari o‘rtasida notekis rivojlanib, bu ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro turizmni eng rivojlangan yeri G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hisoblanib, bu regionning hissasiga xalqaro turizm bozorining 75% dan ortig‘i va 60% ga yaqin valyuta tushumlari to‘g‘ri keladi. Taxminan 20% ga yaqini Amerikaga, 10% dan kamrog‘i Osiyo, Afrika va Avstraliyaga to‘g‘ri keladi. Turizm sohasini G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlanishining asosiy sabablaridan biri shundaki, 2-jahon urushidan keyingi yillarda, bu yerlarda xalqaro turizmni yo‘lga qo‘yish orqali iqtisodiyotni tiklash asosiy yo‘nalish hisoblangan. Buni o‘z vaqtida tushungan biznesmenlar, tadbirkorlar oz pul sarflab, ko‘proq foyda olishni aynan shu xalqaro turizm sohasida ko‘rganlar. Shuning uchun ham hozirgi kunda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida xalqaro turizm sohasidan olinadigan daromad ularning jami daromadlarida salmoqli hissasini tashkil qiladi.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda turistik xizmatlar ko'lamini oshirish**» deb nomlanuvchi ikkinchi bobida turizm sohasi rivojlanishi jarayonlaridagi o'zgarishlar va uni barqaror rivojlanishga ta'siri, turizm sohasini rivojlanishida infratuzilmalar va ulardan samarali foydalanish, turizm sohasini barqaror rivojlanishi va xizmatlar sifatini oshirishda malakali kadrlar salohiyati tahlili amalga oshirilgan.

Yangi O'zbekistonda sayyohlik sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish muhim masalalardan hisoblanadi. Xususan, Jahon Turistik Tashkiloti e'lon qilgan ma'lumotlar bo'yicha bu sohada eng tez rivojlanayotgan hudud sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi qayd etilgan. Bu mintaqaning jahon turizmidagi ulushi 31% ni tashkil etib, dunyoda Yevropadan (42%) keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida turizm sohasining o'sishi 2023 yilda 8% ni, Amerika mintaqasida 6% va Yevropa mintaqasida 4% ni tashkil etgan.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari orasida Malayziya tajribasini o'rganish ahamiyatli hisoblanadi. Chunki bu mamlakatda so'ngi yillarda xalqaro turizm bilan bir qatorda, ichki turizmning o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Ichki turizm xorijga sayohat qilishga nisbatan ko'proq ommalashib bormoqda. Bu holatda mahalliy turistlarga xorijga sayohat qilish xarajatlariga nisbatan arzon ichki narxlar, bir shahardan ikkinchisiga qisqa muddatli va dam olish kunlarida sayohat uyushtirish imkoniyati mavjudligi kabi omillar qulaylik tug'dirmoqda. Misol uchun, hozirgi paytda odamlar o'z shaharlaridan Kuala-Lumpur va Penang shaharlariga sayohat qilish uchun qulay sharoitlar mavjud. Xarajatlarning kamligi va raqobatdosh narxlar sharoiti xatto past daromadli iste'molchilar uchun ham turizm xizmatlaridan foydanishga imkoniyat yaratmoqda. Natijada ichki turizmdan kelayotgan daromad va ichki turistlar soni o'sib bormoqda.

Dissertatsiyada Yangi O'zbekistonda turizm rivojlangan hududlar soni asosan 4 ta bo'lib, bular, Toshkent shahri, Samarqand, Buxora, Xorazm viloyatlaridir deb qayd qilinadi. Bular ichida yeng ajralib turgani Toshkent shahri hisoblanadi. Chunki bu shahar mamlakat poytaxti bo'lgani uchun ham bu yerga keluvchilar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. 2021 yilda Toshkent shahriga mamlakatga tashrif buyurgan turistlardan tushadigan daromad 44% ni tashkil yetgan holda, Samarqandda bu ko'rsatkich 28% ni, Buxorada 18% ni, Xorazmda 8% ni tashkil yetgan. O'zbekistonning boshqa hududlarida turizmning rivojlanishi bo'yicha juda past ko'rsatkichlarga yegamiz. Xususan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida ichki va tashqi turistlarni bu yerlarga tashrifi deyarli sezilmaydi.

2019-2022 yillar oralig'ida, ya'ni 3 yil mobaynida, turizm xizmatlari eksporti hisobidan olingan daromad salkam 2,5 barobarga oshdi: agar u 2019 yilda 1313,0 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib, 3158,0 mln. AQSh dollariga yetdi. Turizm xizmatlari eksportining bunday sur'atlar bilan o'sishi uning mamlakat YaIMdagi ulushini 2,5 foizdan (2019-yil) 4,5 foizgacha (2022-yil) ko'tarish imkonini berdi.

Turizm xizmatlarining mamlakat YaIMdagi mustahkamlashda erishilgan bu yutuqlar uzoq yillar davomida o'zining ulkan turistik salohiyatidan unumli foydalana olmagan O'zbekiston uchun juda katta yutuq, deb baholashga asos yetarli. Hisob-

kitoblar oldingi besh yil mobaynida turizm xizmatlari hajmining 102,7 mln. AQSh dollardan 430,7 mln. AQSh dollarigacha yoki atigi 4,1 barobarga oshganligini ko'rsatdi. O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportining keng ko'lamli islohotlar boshlangunga qadar va ushbu islohotlar boshlanganidan keyingi davr o'sish sur'atlarining qiyosiy tahlili asosida hozirgi kunda davlatning turizm sohasida olib borayotgan boshqaruvchilik siyosati juda samarali degan yakuniy xulosa qilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, turizm eksporti bilan bir qatorda, tarmoqning boshqa muhim ko'rsatkichlari dinamikasiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Turistik xizmatlar turlari qanchalik ko'p bo'lsa, o'shanchalik turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji qondirilib boriladi va mos ravishda sotilgan mahsulot hajmi oshib boradi. Bundan ko'rinib turibdiki, xizmat turlarining diversifikatsiyasi uning hajmiga bevosita ta'sir qiladi, natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik (2-jadval).

## 2-jadval

### “Bog‘ishamol turizm MChJ” turizm sohasi xizmatlarning 2022-2023 yillardagi rivojlanishi ko‘rsatkichlari<sup>6</sup>

Ko‘rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	Farqi (+,-)	O‘zgarish sur‘ati, %
Sotilgan mahsulot (xizmatlar hajmi), ming so‘m	30557,1	32637,0	+2079,9	106,9
Turistlar soni, kishi	2400	2500	+100	104,2
Turistik xizmat turlarining soni, birlikda	17	21	+4	123,5
Bitta xizmat turiga to‘g‘ri keladigan turistlar soni, kishi (3q/2q)	141,2	119,0	-22,2	84,4
Bitta turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha tushum, ming so‘m (1q/2q)	12,73	13,06	+0,33	102,6

Ushbu tahlildan quyidagi xulosalar chiqarish va takliflar kiritish imkonini bilish mumkin:

1. Davlat islohoti siyosatining keng kontekstida ko‘rib chiqilayotgan zamonaviy sayyohlik majmuasini barpo etish mamlakat iqtisodiyotini tiklashning muhim omiliga aylanadi va xizmat ko‘rsatish va servis sohasini ustuvor rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.


2. O‘zbekistonda turizm iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i deb e‘lon qilingan, biroq bugungi kunda mamlakatning turizm salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti. Buesa, o‘z navbatida, boshqaruv strategiyasini shakllantirishni taqozo etadi, bu esa bugungi kunda sohaning hayotiyliigi va muvaffaqiyati garovidir.

3. Turizmni hisobga olishning xalqaro standartlarga javob beradigan tizimini ishlab chiqish, turizm statistikasi ma‘lumotlarini har yili e‘lon qilinishi asosida turoperatorlar sifat va miqdor tahlilini o‘tkazib, kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati tug‘iladi.

<sup>6</sup> Ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Dissertatsiyada ta'kidlanganidek, hozirgi paytda O'zbekiston fuqarolari va xorijiy fuqorolar 84% dan ortig'i o'z sayohatlarini 3 kungacha bo'lgan qisqa muddatlarda amalga oshirmoqda. Ularning 7 kungacha davom etadigan sayohatlari 12,1% ni tashkil etsa, 7 kundan ortiq xizmat ko'rsatilgan fuqorolar soni atigi 3,7% ni tashkil etmoqda. Kiruvchi turizm misolida O'zbekistondagi bu holat ancha salbiy ko'rsatkich ekanligi ma'lum bo'lmoqda, chunki xizmat ko'rsatishning xorijiy standartlari bo'yicha kiruvchi va ichki turistlar oqimlaridagi 14 kungacha bo'lgan sayohatlarning ulushi 90% tashkil qiladi.

Turizmning hozirgi holatini baholashda, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishini ta'minlash bilan birga mamlakat imidjini ham shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan (2-rasm).



**2-rasm. O'zbekiston hududida turizm infratuzilmasi salohiyati<sup>7</sup>**

Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 40 % qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga to'rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri to'g'ri keladi.

Turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bilan birga, har bir mintaqaning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish muhimdir.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasining chegaralaridan o'tuvchi avtomobil, avia va temir yo'llarda yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarining taxlili natijalarini quyidagicha tavsiflash mumkin.

**3-jadval**

**Qo'shni mamlakatlarga xalqaro yo'nalishlar bo'ylab tashilgan yo'lovchilar miqdori (ming kishi hisobida)<sup>8</sup>**

Ko'rsatkichlar	2022 yil	2023 yil
----------------	----------	----------

<sup>7</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jami	12674	16688
Avtobusda yo‘lovchi tashish	7547	9351
Temir yo‘lda yo‘lovchi tashish	3542	4932
Havo transportida yo‘lovchi tashish	1325	1925
Boshqa transportda yo‘lovchi tashish	260	480

Qo‘shni mamlakatlardan barcha yo‘nalishlar bo‘yicha keladigan norezidentlar 2,5 mln. kishini tashkil etadi. Ular tijoratchilar, qarindoshlarinikiga kelgan mehmonlar, qo‘shma korxonalarining xodimlari bo‘lishi mumkin. Yo‘lovchi tashish ma‘lumotlarida shaxsiy mashinasida tashrif buyuruvchilar hisobga olinmagan. Vaholanki, ular tashilgan jami yo‘lovchilarning kamida 20% ni tashkil etadi. Bir kun ichida chiqib ketishni ham hisobga olganda, O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni bir yilda 5,0 mln. kishidan oshmaydi.

Keyingi yillarda respublikamizda turizm infratuzilmasini zamon talabiga moslashtirish maqsadida ko‘pgina ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi «Buyuk ipak yo‘li» ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni bu ishni yanada rivojlantirishga muhim dastur bo‘ldi. Masalan, «Buyuk ipak yo‘li»dagi Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarining aeroportlari va temir yo‘l vokzallarida turistlar uchun bojxona rasm-rusumlarini xalqaro me‘yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek, tranzit turistlar uchun maxsus bojxona zonalarini joriy qilish ko‘zda tutildi. Ushbu shaharlarda yangi tashkil etiladigan turistik tashkilotlar va korxonalar barpo etilgan paytdan boshlab, dastlabki foydani olgunga qadar o‘tadigan davrda, ya‘ni ro‘yxatga olingan sanadan keyin uzog‘i bilan uch yil mobaynida barcha turdagi soliqlardan ozod qilish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, turizm sohasida qo‘shma korxonalar barpo etuvchi xorijiy sarmoyadorlar, ilgari berilgan imtiyozlarga qo‘shimcha ravishda, olib ketadigan foydadan 5 yil muddatga soliq to‘lashdan ozod qilinishi bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Turizm iqtisodiyotning turli sohalarini qamrab oladi, bu esa ushbu sohada band bo‘lgan xodimlar sonini aniq hisoblashni qiyinlashtiradi. Xodimlar sonini real baholash muammosi mehnatning o‘ziga xos xususiyati va turizm sohasi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o‘rtasidagi turli munosabatlar bilan murakkablashadi.

Turizmdagi mehnat resurslarining asosiy qismi mehmonxonalar, restoran va transport korxonalarini tomonidan o‘zlashtiriladi. JST ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘z mamlakatida bitta chet ellik sayyohga xizmat ko‘rsatish to‘qqizga yaqin ish joyini yaratadi. Bandlik statistikasiga ko‘ra, mehmonxonalar sanoatida ayollar ulushi 50 foizdan oshadi. Turizmda ish o‘rinlari soni iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda 1,5 baravar tez o‘smoqda. Har 2,5 soniyada turizm sohasida yangi ish joyi yaratiladi<sup>39</sup>. UNShTO ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda turizm sohasida ish o‘rinlari yildan-yilga oshib bormoqda 2014-yilda bu sohada 42,000 ortiq inson faoliyat yuritgan bo‘lsa 2018 yilga kelib bu son 50,000ga yetgan. Shularning 47,600 tasi mehmonxona va turar joy faoliyat turlarida bo‘lgan va qolgan qismi sayohat agentliklari va boshqa xizmat ko‘rsatish faoliyatlariga to‘g‘ri keladi. Keltirilgan

ma'lumotlarga qaraganda bizda dunyodagi vaziyatga teskari ravishda turizm sohasida erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq ishlashini raqamlar ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, turizm sohasi faoliyatiga ta'sir etuvchi omillardan biri xodimlarning soni, kasb mahorati va malakasiga bog'liq. Shu sababli turizm sohasilarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni doimo oldindan ko'ra bilish, baholay olish va ularga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish natijasida turizm sohasi daromadini oshirish mumkin.

Tadqiqotda ushbu omillar bog'liqligini aniqlash uchun ekonometrik modelga tayanilgan va bu modelning ko'rinishini quyidagicha ifodaoash mumkin:

$$y = -21562.86 + 1.41x_1 + 89.67x_2 + 1.06x_3$$

Bu yerda:

$y$  – Turizm sohasi aktivlari;

$x_1$  – Turizm sohasi xodimlari soni;

$x_2$  – mijozlar soni;

$x_3$  – Turizm sohasi passivlari.

Yaratilgan model shuni ko'rsatmoqdaki, modelga kiritilgan omillar Turizm sohasi aktivlari o'zgarishiga katta ta'sir etadi. Modelga kiritilgan omillar bilan turizm sohasi aktivlari o'rtasidagi bog'lanish, ya'ni me'yorlashtirilgan korrelyatsiya koeffitsientiga teng, ya'ni ular orasidagi bog'lanish ijobiy xususiyatga ega, xodimlar soni, mijozlar soni va Turizm sohasi passivlari ortishi Turizm sohasi aktivlari o'sishiga kuchli ta'sir etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, turizm va servis sohasida kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bir nechta takliflarni kiritish maqsadga muvofiq. Sohadagi kasblarning nufuzini ko'tarish va mustahkamlash zarur. Aynan shu lavozimdagi shaxslar mijozlar bilan bevosita aloqada bo'lishlari va u yoki bu tarzda ma'lum bir mintaqada turistik biznesni rivojlantirish uchun sharoit yaratib berishadi. Bizning fikrimizcha, turizm sohasida tegishli kasblarning nufuzini mustahkamlashga quyidagilar yordam berishi mumkin:

tegishli mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan yirik sayyohlik agentliklari, turistik birlashmalar va norasmiy uyushmalar, o'quv yurtlari rahbarlarining ushbu aniq kasblarni egallash zarurligi to'g'risidagi bayonotlari bilan, ehtimol mijozlarning fikriga havolalar bilan chiqishlari;

turistik biznesning ma'lum bir sohasini eng yaxshi vakillarini tanlab olish uchun professional tanlovlarni tashkil etish;

faoliyati turizm sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarini reklama qilish;

tegishli bilim yurtlari bitiruvchilarini turizm, mehmonxona va restoran biznesining haqiqiy ehtiyojlariga professional yo'naltirish;

har bir talaba uchun turistik biznesning mintaqaviy xususiyatlarini, kompaniyaning ehtiyojlarini, universitet ehtiyojlarini, shuningdek talabaning o'zining ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual amaliyot rejasini tuzish kerak. Shaxsiy reja kasb-hunarga yo'naltirishni yaxshilashga, uni bir vaqtning o'zida bir nechta kasblarning xususiyatlari bilan tanishtirishga va boshqalarga yordam beradi.

asosiy va maxsus o'quv kurslarining o'quv dasturlarini takomillashtirish, ularning ma'lum bir mintaqadagi turistik biznesning o'ziga xos xususiyatlariga aniq yo'naltirilganligi, ushbu mintaqaning rekreatsion imkoniyatlarini o'rganishni qamrab olganligini ta'minlash.

mutaxassislik fanlarini o'qitish uchun amaliyotchilarni faolroq jalb qilish. Tadbirkorlarning asosiy qismi o'rtasida o'qitish faoliyatiga qiziqish kamligini hisobga olib va bu uchun moddiy haq to'lash darajasi pastligi sababli amaliyotchilarni soatbay haq to'lash orqali jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarni o'z malakalari va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirish, yangi bilimlarni egallashga yo'naltirish.

turizm va xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassislarini tayyorlaydigan ta'lim muassasalari bilan ma'lum bir hududda turizmni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan davlat va shahar tuzilmalari bilan a'loqalarni kuchaytirish. Bunday a'loqalar tegishli ta'lim muassasasiga turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy (mahalliy) konseptual yondashuvlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi, shuningdek bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishi mumkin.

Dissertatsiya ishida hozirgi vaqtda turizm sohasida innovatsiyalarni yangi turistik mahsulotni yaratishga yoki mavjudlarini o'zgartirishga qaratilgan, yangi bozorlarni o'zlashtirishga, ilg'or axborot telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga, turistik, transport va turizm sohasi xizmatlarini taqdim etishni oldindan band qilishni takomillashtirishga, turistik korxonaning faoliyatiga tashkiliy-boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy qilishga yo'naltirilgan faoliyatlar natijasi sifatida tushunish kerakligi ta'kidlangan. Turizmدا innovatsion jarayon o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u qoida tariqasida bir tomondan turistik bozor va turistlarning qoniqish darajasi orqali tan olinadi, boshqa tomondan, asosan turizm korxonalari, viloyatdagi turizmni boshqarish organlari, mahalliy boshqaruv organlari va faoliyati bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlari tomonidan qo'shma qarorlar qabul qilinishi tufayli tan olinadi.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlashda innovatsiyalardan foydalanishni takomillashtirish, innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlash istiqbollari bashoratlash yo'llari belgilab berilgan.

Dissertatsiyada muallif tomonidan hududlarda turizm biznesni innovatsion rivojlantirishning alohida modeli va innovatsion salohiyatini bahloshga doir fikrlarga, Samarqand viloyatining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda ilmiy izlanishlar alohida amalga oshirilmaganligi tufayli bu yo'nalishda qilingan izlanishlar ushbu tadqiqotda o'zining ifodasini topganligiga e'tibor qaratilgan. Samarqand viloyatida katta-kichik turistik firmalarning joylashuvi, iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion islohotlar, tub yangilanishlarni modernizatsiya qilinayotgani sharoitida hududda turizm sohasi innovatsion rivojlanishining yanada iqtisodiy samarali yo'llarini asoslash, tahlil va prognoz qilish uchun zarur bo'lgan omillar va mezon-ko'rsatkichlarni majmuaviy

qamrab oladigan hududiy monitoring yaratish va uni amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

Turizm sohasi subektlarining innovatsion faoliyati muhiti eng avvalo, amaliyotga yangi, takomillashgan xizmat ko'rsatishni joriy etish, ikkinchidan, xizmat ko'rsatish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ko'rsatiladigan xizmat ko'rsatish tannaxrlarini pasaytirishda ularning iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borishni ham talab etadi. Bunday sharoitda turizm biznesi sube'ktlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish maqsadi butun xizmat ko'rsatish tizimini yangilash hisobiga turizm bozori xizmati samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Shuni hisobga olib, ayrim bir hududda turizm tadbirkorlik muhitining shakllanish va innovatsion rivojlanish mexanizmining hududiy-iqtisodiy o'sishga va raqobatbardoshlik o'sishiga ta'sirini bozor infratuzilmasi, ekologiya, demografiya va aholining ijtimoiy ahvoli kabi bir qator omillarning ta'sirlarini o'rganish asosida ushbu sohani innovatsion faollashtiruvchi omillar va mezon-ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish imkoniyati bor.

Turistik xizmatlar hajmi bashoratining tahlil natijalaridan amaliyotda foydalanish maqsadida xususan, strategik rejalashtirishda qo'llash uchun, ishda ushbu tahlil jarayoni va natijalari kelajakda O'zbekistonda kiruvchi va chiquvchi turizm bozori asosida rivojlanayotgan turistik biznes nafaqat turizm sohasiga, balki noishlab chiqarish sohasiga tegishli bo'lgan bir qator boshqa sohalarning rivojlanishini ham ta'minlaydi. Bu sohalarda hamda turistik infrastrukturasi tegishli korxonalarda yangi ishchi o'rinlarning yaratilishiga yordam beradi.

Turizm rivojida ro'y berayotgan bunday ijobiy o'zgarishlar, avvalo, Respublikamiz turizmining globallashuvi hamda jahon sayyohlik bozorida sodir bo'layotgan kuchli o'sish bilan bog'liqdir. Samarqand viloyatini boshqa turistik markazlar bilan bog'lovchi yo'l infratuzilmasining yaxshilanayotganligi, turizm xizmatlari sifatining o'sib borayotganligi kabi omillar viloyatda turizmning izchil rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari bo'yicha erishilgan yutuqlar asosida shuni ta'kidlaymizki, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishi sharoitida turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlash asosida, uning segmentlarini aniqlash, ayniqsa, jozibali jihatlarini ilmiy tahlil qilish va amaliy xulosalar chiqarish natijasida bu sohada ijobiy yutuqlarga erishish imkoniyati yaratiladi. Kichik biznes korxonalari innovatsion salohiyati natijalarini quyidagi 4-jadvalda ko'rsatilgan ekonometrik baholash mezonlari bo'yicha tasniflash mumkin.

#### 4-jadval

#### Turistik korxonalarini innovatsion salohiyat ko'rsatkichlari bo'yicha tasniflash<sup>9</sup>

Turistik firma tavsifi	Ko'rsatkich qiymati ( Z )
------------------------	---------------------------

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqori darajadagi innovatsion salohiyat. Bu darajadagi kichik korxonalar innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib, yangiliklarni joriy etib samarali rivojlanadi.	> 0,7
Oshirilgan darajali innovatsion salohiyat. Korxonalar yetarli hajmdagi resursga ega bo'lib innovatsion salohiyat tuzilmalari o'rtasidagi tafovut kam.	0,5 – 0,7
O'rta darajali innovatsion salohiyat. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun etarli darajada bo'lmagan resurs hajmi. Innovatsion salohiyat qiymati past bo'lgan tuzilmalarini oshirish kerak.	0,3 - 0,5
Past darajadagi innovatsion salohiyat. Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun korxonada resurs mavjud emas.	< 0,3

Turizm biznesining innovatsion salohiyatini ekonometrik baholash bo'yicha tavsiya qilingan uslubiyot quyidagi imkoniyatlarni beradi:

har xil o'lchamdagi ko'rsatkichlarni bitta umumiy koeffitsientga keltirish orqali baholash va taqqoslash;

turli davrlardagi innovatsion salohiyatni baholashda inflyatsiya darajasini hisobga olish;

innovatsion salohiyat tarkibiy qismi guruhlarining har birini qiymatini aniqlash;

innovatsion salohiyatni alohida bitta firma uchun, hamda bir qancha firmalar yig'indisi uchun ko'rib chiqish;

ko'zlangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga erishishga yordam berishi uchun innovatsion salohiyat tarkibiy qismi guruhlariga kiritilgan ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

Ushbu uslubiyot bo'yicha Samarqand viloyati iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatuvchi ayrim turistik firmalar innovatsion salohiyati ekonometrik usullar orqali hisoblab natijalar chiqarildi. Ushbu natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

Samarqand viloyatidagi turizm biznesi korxonalarini innovatsion salohiyatining holati tahlili bu korxonalarining turli sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyati past darajada ekanligini ko'rsatdi. Bu zarur hajmdagi resurslarning yo'qligi va innovatsion salohiyat tarkibiy qismi tuzilmalari past ko'rsatkichga ega ekanligidan dalolat beradi.

## 5-jadval

### Samarqand viloyati turizm korxonalarini innovatsion salohiyati<sup>10</sup>

Turistik firma nomi va faoliyat sohasi	Innovatsion salohiyat					
	Dinamik usul			Statik usul		
	2021 y	2022 y	2023 y	2021 y	2022 y	2023 y
“Bog‘ishamol turfirma”(Ichki va tashqi turizm)	0,121	0,115	0,118	0,511	0,489	0,506
“Umid-2001”(Turizm)	0,116	0,117	0,128	0,498	0,513	0,528
“Sardor-turizm”(Turizm)	0,107	0,124	0,125	0,476	0,506	0,514
“Zarafshon”(Mehmonxona)	0,118	0,126	0,129	0,498	0,503	0,502
“Registon”(Turizm)	0,135	0,119	0,131	0,532	0,494	0,512

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Innovatsion salohiyatning alohida guruhlar bo'yicha qiymatlarini tahlil qilish orqali Samarqand viloyatidagi turizm biznesi korxonalari innovatsion salohiyati shakllanishida moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hissasi ko'proq ekanini ta'kidlash lozim. Ikkinchi o'rinda innovatsion salohiyatning ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'rsatkichlar turgan bo'lsa, eng kam qiymat ilmiy-texnik guruhga to'g'ri keldi. Olingan natijalardan turizm korxonalar innovatsion salohiyatni tashkil etuvchi xodimlar va ilmiy-texnik guruhlari ko'rsatkichlarini oshirib, shu orqali innovatsion salohiyatni oshirib, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishlari mumkin deb xulosa qilamiz.

O'zbekistonda 2024-2026-yillar davomida milliy turistik xizmat bozori rivojlanishining bashorat ko'rsatkichlari istiqbolda turizm sohasining YaIM tarkibidagi salmog'ining muntazam ravishda ortishidan dalolat beradi va shunga binoan istiqboldagi o'sish sur'atlarining ta'minlanishi O'zbekistonda turizm xizmatlar bozorini takomillashtirish va innovatsion rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Bunda turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning strategiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lishi kutiladi:

O'zbekistonda turizm sohasini xalqaro zamonaviy norma va standartlar darajasiga ko'tarish;

turizmning milliy modelini shakllantirish jarayonini tezlashtirish;

turizm sohasini rivojlantirish maqsadida raqobatbardosh turistik mahsulotlar ishlab chiqarish;


turistik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

turistik xizmatlarning ichki bozorini takomillashtirish va mintaqaviy turmahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish.

Xorijlik sayyohlarning Samarqandda qolishi o'rtacha 2,7 kuni tashkil etmoqda. Har bir sayyoh bir kunda o'rtacha 85 dollardan 250 dollargacha mablag' sarflayapdi. Ayni paytda viloyatda sayyohlar uchun 15 606 o'rinli 570 ta mehmonxona xizmat ko'rsatmoqda. 2023-yilda umumiy qiymati 5,9 trillion so'mlik 180 loyiha ishga tushirilib, turizm va unga yo'ldosh xizmatlar ko'rsatish sohasida 5,5 mingta yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan. Xususan, 55 ta joylashtirish vositalari, 41 ta dam olish va ko'ngilochar maskanlar, 45 ta umumiy ovqatlanish va 39 ta boshqa turizm loyihalari amalga oshiriladi.

2023-2024-yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra Samarqand turizm markazi imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, 50 dan ortiq xalqaro tadbirlar o'tkaziladi. Imom Buxoriy va Ad-Doramiy ziyoratgohlarida olib borilayotgan qurilish ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirish orqali sayyohlar soni oshiriladi. Urgut, Payariq, Samarqand tumanlari mahallalarida turizm xizmatlari rivojlantiriladi.

Turizm korxonalari rivojlanishining barqarorligini baholash har bir biznes tuzilmasi uchun eng maqbul rivojlanish strategiyasini tanlash imkonini beradi. Bunda gap, birinchi navbatda, o'zaro bog'liq tomonlar qarashlaridan murosaga erishish haqida ketmoqda. Buning uchun biz inqiroz va turli noxushliklar davrida turizm tadbirkorlik tuzilmalarini barqaror rivojlantirish dasturining blok-chizmasini taklif qilamiz (3-rasm).



**3-rasm. Inqiroz va turli noxushliklar davrida turistik firmalarda muhim innovatsion biznes tuzilmalarining rivojlantirilishi<sup>11</sup>**

---

<sup>11</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Bir qator turistik korxonalarining tizimli inqirozi va surunkali nochorligi sharoitida xo‘jalik ichidagi munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini isloh qilish muammosi paydo bo‘ladi. Bu nochor ahvolda qolgan turistik firmalarning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini yuksaltirishning asosiy dastagiga aylanishi mumkin, chunki o‘z-o‘zini moliyalashtirish tijorat hisobiga asoslangan xarajatlarga qarshi mexanizmni faollashtiradi. 6-jadvalda ekonometrik modellarning turi va asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

## 6-jadval

### Regression modellarning turi va asosiy ko‘rsatkichlari<sup>12</sup>

Aloqa turi	Regression modellar	Baholash mezonlari		
		<i>R</i>	<i>F</i>	<i>E</i> (%)
1. Chiziqli	$y = 5984,1 + 1,07x_1 + 11,36x_2 + 2962x_3$	0,932	7,60	8,757
2. Logarifmik	$y = 356 + 53,2 \ln x_1 + 601,8 \ln x_2 + 156,2 \ln x_3$	0,859	3,87	68,97
3. Giperbolali	$y = 796 + 6884 / x_1 + 1123 / x_2 - 57,23 / x_3$	0,761	2,01	90,71
4. Ko‘rsatkichli	$y = -173,9 + 0,00252x_1^2 + 59,26x_2^2 - 106,2x_3^2$	0,772	17,57	33,98
5. Darajali	$y = 41,13x_1^{0,4214} x_2^{0,9411} x_3^{0,08914}$	0,701	38,93	12,05

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, chiziqli funksiya bilan olingan ekonometrik model ushbu jarayonni aynan tavsiflovchi hisoblanadi. Bu modelning olingan statistik o‘lchamlari: ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsientining eng yuqori qiymati  $R=0,932$ , *F*-Fisher mezonining qiymati 7,6 va approksimasiya xatosining eng kam foizi  $E=8,75\%$  (95% li ehtimollik) ega bo‘lgan chiziqli ko‘p omilli regressiya tenglamasi tanlab olindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usul orqali tahlil qilingan istiqbol ko‘rsatkichlar, ulardan amaliyotda foydalanish mumkinligi to‘g‘risida dalolat beradi. Ushbu usul yordamida olingan bashoratlar ishonchli bo‘lib, ular 7-jadvalda keltirilgan.

<sup>12</sup> Muallif tamonidan tuzildi

**Samarqand viloyati turistik sohasining  
2024-2026 yillar davridagi rivojlanish bashorati<sup>13</sup>**

Ko'rsatkich nomi	Bashorat uchun eng qo'lay ekonometrik usullar	Fisher koef.	Yillar			Bashoratning o'rtacha xatosi %
			2024	2025	2026	
Turistik xizmatlar hajmi mln. so'mda;	$y = 5984,1 + 1,07x_1 + 11,36x_2 + 2962x_3$	7,6	18779,4	20169,5	21861,2	6,02
Xizmatlar eksporti, AQSh ming dollarida	$x_1 = 4016,73 + 18,9t^2$	4,25	8267,65	8853,33	9476,8	7,08
Xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish, ming kishi;	$x_2 = 7,93 * 1,21^t$	13,5	105,92	123,17	143,18	6,25
Mehmonxonalar va joylashtirishning boshqa muqobil vositalari, dona;	$x_3 = 1/(0,04 - 0,002t)$	19,23	81	95	116	4,88
Mehmonxonalar va joylashtirishning boshqa muqobil vositalarida tunashlar soni, ming dona;	$x_4 = 153,87 + 31,85 \lg t$	3,85	191,3	192,2	193,1	9,85
Mehmonxonalarda 2 kishilik joyga joylashtirishning o'rtacha qiymati, AQSh dollarida;	$x_5 = 13,48 - 0,03t^2$	3,38	6,85	5,94	4,97	5,73

Turistik xizmatlar hajmi bashoratining tahlil natijalaridan amaliyotda foydalanish maqsadida xususan, strategik rejalashtirishda qo'llash uchun, ishda ushbu tahlil jarayoni va natijalari kelajakda O'zbekistonda kiruvchi va chiquvchi turizm bozori asosida rivojlanayotgan turistik biznes nafaqat turizm sohasiga, balki noishlab chiqarish sohasiga tegishli bo'lgan bir qator boshqa sohalarning rivojlanishini ham ta'minlaydi. Bu sohalarda hamda turistik infrastrukturasi tegishli korxonalarda yangi ishchi o'rinlarning yaratilishiga yordam beradi.

Turizm rivojida ro'y berayotgan bunday ijobiy o'zgarishlar, avvalo, respublikamiz turizmining globallashuvi hamda jahon sayyohlik bozorida sodir bo'layotgan kuchli o'sish bilan bog'liqdir. Samarqand viloyatini boshqa turistik markazlar bilan bog'lovchi yo'l infratuzilmasining yaxshilanayotganligi, turizm xizmatlari sifatining o'sib borayotganligi kabi omillar viloyatda turizmning izchil rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

## XULOSA

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida aholining ehtiyojini qondirish jarayonida ishtirok etadigan subektlar faoliyatiga keyingi paytlarda katta e'tibor berilmoqda va bulardan biri turizm sohasi hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – xizmat ko'rsatish sohasining nafaqat mamlakat iqtisodiy yuksalishi, balki undagi ijtimoiy jarayonlarni takomillashtirishdagi roli ham uzluksiz tarzda oshib borayotganligidadir. Ushbu soha mamlakat iqtisodiy salohiyati va qudratini jahon miqyosiga ko'tarayotgan va ayni bir paytda, aholi turmush darajasi va sifatini shakllantirishda faol ishtirok etayotgan hamda uni oshirishda yuqori samara berayotgan sohadir. Shu jihatdan ushbu soha bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish, ularning bozor talablariga javob beradigan majmuaviy echimlarini topish va amaliyotga samarali joriy etish bugungi kunning, ayniqsa, istiqbolda aholi turmush darajasini oshirishning strategik ahamiyatga ega o'ta dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralib, turizm sohasini barqaror rivojlanishi jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish natijasida qo'yidagi ilmiy xulosalarga kelinganini qayd qilamiz.

1. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra milliy turizm sohasining barqaror rivojlanishiga iqtisodiy va ijtimoiy omillar bevosita ta'sir qilishi va ularning tarkibi har doim o'zgarib turishi ko'rsatib berildi. Turizm sohasini barqaror rivojlantirish uchun nafaqat turizm sohasi bilan birgalikda turdosh tarmoqlar, tashkilotlar va ko'plab korxonalarni o'zaro aloqalari modelida davlatning roli xususiy, tashkiliy, ijtimoiy va davlat tuzilmalari uchun qulay institusional iqlim va infratuzulma yaratish hamda innovatsion faoliyat uchun zarur bo'lgan strategik yo'nalishlardagi texnologiyalar majmuasini, kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashishdan iborat.

2. O'zbekiston Respublikasi turizm bozorini rivojlantirish hisobiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda yaxshi natijalarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan mamlakatdir. Respublikamizning tabiiy-iqlim sharoiti, tarixiy va madaniy obidalari, diniy aziz-avliyo, qadimja joylarini mavjudligi tog'li hududlari, man-zarali joylarini ko'pligi, qarindoshi-urug'lari bilan diydor ko'rishish, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari O'zbekistonga turistlar oqimini tashrif buyurishi uchun rekreasion resurs hisoblanadi. Vaholanki, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Xorazm kabi shaharlardagi tarixiy yodgorliklarga boy bo'lgan mamlakatimizga ke-lishni rejalashtirib qo'ygan ko'pgina Evropaliklarni soni 10 mln. dan ortiqdir. Agar turistik mahsulotlar soninin ko'paytirib, mehmonxonalar va turizmning boshqa infratuzilmalarida servisni yuqori darajada amalga oshirishni to'g'ri yo'lga qo'ysa O'zbekiston kelajakda xalqaro turizm bozori orqali yuqori daromad oladigan mamlakatlar safiga qo'shiladi.

3. Turizm sohasini barqaror rivojlantirishda davlat tomonidan qabul qilinayotgan farmonlar va strategik qarorlar turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda va turizm bozorini mukammal shakllantirish tamoyillarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga binoan turizm xizmatlar bozorining kelajakda innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari taklif qilindi.

4. O'zbekiston mintaqalarida turizm resurslardan to'liq foydalanish zamirida va buning uchun yangi turistik firmalarning ochilishi yangi turistik mahsulotlarning yaratilishiga asos bo'ladi. Shu maqsadda O'zbekistonda turizm sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznes hamkorligini mustahkamlashga

imkon yaratishi bilan bir qatorda, turistik korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga hamda mamlakatimizning turistik imkoniyat sifatida hammaga maqbul bo'ladigan tassavurini shakllantirish va bunda malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlarini amalga oshirish va amaliyotda ulardan maqsadli foydalanish lozim.

5. xalqaro turizmni mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va roli iqtisodi rivojlangan mamlakatlar misolida yaqqol ko'rinib, mamlakat xazinasiga valyuta tushumini ta'minlash, aholini ish bilan band qilish va yana boshqa ko'plab jarayonlarda sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda.

6. O'zbekiston iqtisodiyotining xo'jalik amaliyotida marketing jarayonlarini qo'llanilishi mahsulotlarni o'tkazish, sotish maqsadida ishlatilayotgan yangi usul bo'lib, xalqaro turizm sohasida ham undan foydalanish yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar ko'lami, mohiyati jihatidan jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan ham sodir bo'ladigan iqtisodiy aloqalarni qamrab oladi va o'ziga xos bo'lgan muammolarni hal qilishni taqozo etadi.

7. O'zbekiston Respublikasi juda boy turistik imkoniyatlarga ega bo'lib, agar bulardan oqilona foydalanilsa, turizm sohasidan kutiladigan daromadlarni olish mumkin. Shuning uchun ham turistik resurslarning asl mohiyati tarixiy-hududiy tarkiblanishdagi madaniy meroslarimizning mavjudligida deb hisoblash lozim. Bu meroslardan turizmda foydalanishda esa tarixiy–tabiiylikka asoslanish talab qilinadi. Jahon xalqlari turizmi ham ushbu yo'lni tanlagan. Bu tanlashda har bir davlat faqatgina o'z hududlarining tarixiyligi va bu tarixiylik insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Bu xulosalar tarixiy-madaniy merosga qiziqishni orttirib, turizmning tobora rivojlanib borayotganligini tasdiqlaydi.

8. Bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarda ma'lum bir darajada o'zgarishlar sodir bo'lishini taqozo etib, sifat ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi. Mamlakatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar eng avvalo iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ko'zga tashlanib bormoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarida bozor tizimlari o'z ifodasini topib, uning yanada yangi qirralari ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblangan turizm tarmog'i Respublika iqtisodiyotining rivojlanishida, aholini ish bilan ta'minlashda, ularni moddiy faravonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Tadqiqot jarayonida turizm tarmog'ining o'ziga xos ikkita xususiyat borligi aniqlandi. Birinchidan, turizm infratuzilmasini shakllantirishda tarmoqning o'ziga taalluqli bo'lgan obektlar va ishlab chiqarish vositalaridan tashqari, boshqa bir qator tarmoqlar ham faol ishtirok etadi. Demak, turizm xizmatlarini tashkil etish uchun katta ahamiyat kasb etuvchi ushbu tarmoqlarni tartiblash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi bo'lmog'i lozim. Ikkinchidan, turizm xizmatlari tashrif buyurgan mehmonlarning xavfsizligini ta'minlash, ularning manfaatlarini himoya qilishni taqozo etadi. Demak, turizmning ushbu xususiyati uning faoliyatini tartiblashga doir me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda albatta o'z aksini topmog'i lozim. Ular turistlarning hamda ularga xizmat ko'rsatuvchilarning manfaatlarini himoyalashga yo'naltirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**ШОДИЕВ КАМОЛИДИН ШАМСИДДИН УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ УСТОЙЧИВОГО  
РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В УСЛОВИЯХ  
ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ**

**08.00.17 – Туризм и гостиничное дело**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.3.PhD/Iqt1862.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте университета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

Научный руководитель:

Тураев Баходир Хатамович  
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдувахидов Абдумалик Махкамович  
доктор экономических наук, профессор

Рузиев Собиржон Саматович  
доктор экономических наук (PhD), доцент

Ведущая организация

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «3» 12 2024 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Разового научного совета на базе Научного совета № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г.Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован за № 1537). Адрес: 100066, г.Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75, факс: (99871) 239-28-75; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz)

Автореферат диссертации разослан «18» 11 2024 года.

(реестр протокола рассылки № 76 от «18» 11 2024 года.)



*[Signature]*  
С.У. Мехмонов  
Член Разового научного совета при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, д.э.н., профессор

*[Signature]*  
У.В. Гафуров  
Секретарь разового научного совета при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, д.э.н., профессор

*[Signature]*  
А.А. Энгтаев  
Председатель научного семинара при  
разовом научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях глобальной интеграции и усиления конкуренции в мире устойчивое развитие сферы услуг, в том числе туризма и гостиничного хозяйства, требует изменения приоритетов развития, дальнейшей глобализации туристического бизнеса и путешествий на основе расширения и поддержки международных отношений создает необходимость активизации процессов.

В последнее время большое внимание уделяется деятельности субъектов туризма, которые активно участвуют в последовательной реализации стратегии социально-экономического развития страны, прежде всего, в процессе удовлетворения потребностей населения.

По данным Всемирной туристской организации, «в 2022 году мир посетили 900 миллионов человек», обслужено туристов, более чем в два раза больше, чем в 2021 году<sup>1</sup>. Следовательно, в данный момент Туризм и туристическая индустрия распространяются по всему миру, и ее значение возрастает в глобальном масштабе.

В мире туризм проявляется как крупнейшая отрасль, ориентированная на внешний рынок, и в связи с его большим вкладом в обеспечение устойчивого роста мировой экономики, благодаря большому вкладу в обеспечение стабильного роста мировой экономики, проводится множество научных исследований, направленных на устойчивое развитие туристического сектора в инновационной экономике. Углубление методического процесса стабильного развития туристической сферы в инновационной экономике, определение факторов, влияющих на организационно-экономические механизмы устойчивого развития отрасли, разработка методических основ оценки влияния условий и туристской инфраструктуры на развитие туристической отрасли, определение путей использования потенциала квалифицированных кадров, одним из приоритетных направлений научных исследований является

совершенствование маркетинговых исследований в обеспечении устойчивого развития туристической отрасли.

Разработка и четкое определение программ экономического развития на различных уровнях для обеспечения последовательного и стабильного развития экономики в новом Узбекистане рассматривается как гарантия развития туристической сферы. Анализ развития туристической сферы республики за последние годы показывает, что имеются возможности обеспечить ее стабильное развитие в условиях инновационной экономики и повысить ее конкурентоспособность за счет полного использования богатого природного, культурного и национального потенциала. В Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису: «...кто победит в современном быстро меняющемся мире? Победит страна, которая опирается на новые идеи, новые идеи и инновации. Инновации – это будущее. Если мы

---

<sup>1</sup>По данным официального сайта Всемирной туристской организации (ЮНВТО).  
<https://tourism.interfax.ru/ru/news/articles/94758/>

начнем строить наше великое будущее сегодня, мы должны начать его на основе инновационных идей и инновационного подхода»<sup>2</sup>, - его мнение показывает серьезность этой проблемы. Формирование современной инфраструктуры туризма в международном туристическом бизнесе Узбекистана является одним из актуальных вопросов экономического развития страны, который требует реализации научных исследований, направленных на сохранение богатого историко-культурного наследия нашего народа и эффективное использование природных ресурсов.

Указ Президента Республики Узбекистан от 6 апреля 2021 года № ПФ-6199 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы государственного управления в сфере туризма, спорта и культурного наследия», Республика Узбекистан «2022-2026 гг.» Реализация задач, определенных в «Концепции развития туристической сферы в Республике Узбекистан», создание «Комитета по туризму» при «Министерстве экологии, охраны окружающей среды и изменения климата» Президента Республики Узбекистан от 27 июля 2023 года данная научно-исследовательская работа служит в определенной степени выполнению задач, предусмотренных иными нормативными правовыми документами, относящимися к данной области.

**Соответствие исследований приоритетам развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления I. «Духовно-этическое и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» республиканского научно-технического развития.

**Степень изученности проблемы.** Теоретико-методологические вопросы, связанные с тенденциями развития туристической сферы, организационно-экономическими механизмами и ее местом в экономической и социальной жизни страны, обсуждаются зарубежными экономистами как: Дж. Уокер, Ф. Котлер, Дж. Боуэн, Дж. Майкенс, Дж. А. Мичелли, А. Браймер, В.А.Квартальнов, А.Д. Чудновский, В.И.Азар, В.С. Боголюбов, В.Квартальнов, М.А.Жукова, Н.Кабушкин, Г.Папирян, Б.А.Романов, В.Б.Сапрунова, Л.Ф.Дорков, Ю.Ф. Н.М.Кулдошина, Д.С.Ушаков, Л.В. Хорева, Г.А. Карпова, И.Т. Балабанов, А.И. Балабанов, А.Л.Лесник, И.П.Масиский, В.Г.Федсов, А.В.Чернышев, В.Сенин, А.Б.Косолапов, М.В.Якименко, Л.П.Шматко, Л.В.Жолобова, Г.И.Ляшколар<sup>3</sup> и др., в основном они создали

---

